

Yevropa elastomerlar bozori 2035-yilga kelib 64 foizga o'sadi

// 03.08.2026

<https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/yevropa-elastomerlar-bozori-2035-yilga-kelib-64-foizga-o-sad>



Yevropa elastomerlar bozori hajmi 2026-yilda 25,9 mlrd AQSH dollariga yetadi. Tahlillarga ko'ra, 2025-2035-yillar davomida bozor 64 foizga o'sib, 24,7 mlrd dollardan 40,5 mlrd dollargacha yetishi hamda yillik o'rtacha 5 foiz sur'atda rivojlanishi kutilmoqda.

Bozor o'sishining asosiy harakatlantiruvchi omili avtomobilsozlik sohasi bo'lib, bu elektr avtomobillariga o'tish va barqaror rivojlanish sohasidagi qat'iy talablar bilan izohlanadi.

2025-yilda bozorning 17,8 foiz ulushini tashkil etgan iste'mol tovarlari segmenti eng tez o'suvchi yo'nalish sifatida qayd etilmoqda. Shu bilan birga, sanoat (24,6 foiz) va avtomobilsozlik tarmog'i (24,7 foiz) bozorning asosiy segmentlari bo'lib qolmoqda. Tibbiyot sohasi esa umumiy bozorning qariyb 20 foizini tashkil etadi.

Tahlillarga ko'ra, jahon elastomerlar bozori hajmi 2026-yildagi 115,4 mlrd AQSH dollaridan 2034-yilga kelib 175 mlrd AQSH dollarigacha o'sishi prognoz qilinmoqda.